



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING FARMOYISHI

20 24 y. " 31 " iyul

N^o 01-09/112

“Zakovat intellektual klubi” nodavlat notijorat tashkilotiga mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-yanvardagi “Zakovat” intellektual o‘yinini aholi o‘rtasida ommaviy-ma’rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-96-son qarori (keyingi o‘rinlarda – qaror) ijrosini ta’minlash maqsadida:

1. Qarorning 5-bandiga asosan:

mamlakatimizda intellektual o‘yinlarni yanada rivojlantirish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi orqali Davlat budjetidan “Zakovat intellektual klubi” nodavlat notijorat tashkilotiga (keyingi o‘rinlarda – “Zakovat” intellektual klubi) 2022-yilda 50 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi, bunda kelgusi yillarda mablag‘lar “Zakovat” intellektual klubiga asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq ajratilishi;

mazkur mablag‘lar intellektual o‘yinlarni tashkil etish, savol yo‘llagan teletomoshabinlarni moddiy rag‘batlantirish, ekspertlar va hakamlarga ish haqi to‘lash, “Zakovat” intellektual klubi a‘zolari uchun ochiq ro‘yxatdan o‘tish elektron platformasini yaratish va uni yuritish hamda g‘olib bo‘lgan jamoalar a‘zolarini ushbu qarorda belgilangan tartibda rag‘batlantirish, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan kompyuter va mobil o‘yinlarni yaratgan dasturchilarga grant va subsidiyalar ajratish, shuningdek, ushbu o‘yinlarni o‘tkazish bilan bog‘liq boshqa chora-tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi;

“Zakovat” intellektual klubi har chorak yakuni bo‘yicha ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanganlik to‘g‘risida Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Yoshlar ishlari agentligiga hisobotlar kiritib borishi;

“Zakovat” intellektual klubiga mazkur bandga muvofiq ajratilayotgan mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar smetasi Tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Zakovat intellektual klubi”ning 2024-yil 30-iyuldagi Ch-698-son xatiga asosan klub faoliyatini rivojlantirish va yuqoridagi qarorda keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun “Zakovat intellektual klubi” nodavlat notijorat tashkiloti hisob raqamiga 15 000 000 000 (o‘n besh milliard) so‘m mablag‘ o‘tkazib berilsin.

Xarajatlar Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jang'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilsin.

3. Yoshlar ishlari agentligi:

Moliya-iqtisod bo'limi (J.Rasulov)ga mazkur farmoyishning 2-bandida nazarda tutilgan mablag'ni "Zakovat intellektual klubi" nodavlat notijorat tashkilotining tegishli hisobvarag'iga o'tkazilishini ta'minlash;

Bolalar, xotin-qizlar, ta'limdagi yoshlarni va volontyorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash boshqarmasi (Z.Ataxanov)ga ushbu farmoyishga muvofiq ajratilgan mablag'ning maqsadli sarflanishi bo'yicha "Zakovat" intellektual klubining hisobotlarini qabul qilish va ortib qolgan (iqtisod qilingan) qismini Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatining budjetdan tashqari tegishli g'azna hisobvarag'iga qaytarish choralarini ko'rish;

Ichki audit bo'yicha bosh mutaxassis (N.Xayrullayev)ga "Zakovat" intellektual klubining hisobotlarini ishonchliligi, asoslanganligi, to'liqligi hamda to'g'ri shakllantirilganligini o'rganib, Agentlik direktoriga ma'lumot taqdim etish vazifalari yuklansin.

4. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilish Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari D.Kattaxanova zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



A. Sa'dullayev

Yoshlar ishlari agentligi
Direktori A.Sa'dullayevga

Hurmatli Alisher Zafarovich,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-yanvaridagi "Zakovat" intellektual o'yinini aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-96-sonli qarorining 5-bandi hamda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-son Qonuni 5-ilovasining 5-bandiga muvofiq Davlat budjetidan "Zakovat" intellektual klubi" nodavlat notijorat tashkilotiga 50 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari, "Zakovat" intellektual o'yinini aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirish bo'yicha respublika tashkiliy qo'mitasi rahbari O.Abduraxmonov tomonidan "Zakovat" intellektual klubi" nodavlat notijorat tashkilotining 2024-yilda bajarilishi rejalashtirilgan xarajatlar smetasi tasdiqlangan.

Yuqoridagilarga muvofiq Sizdan ko'zda tutilgan 50 milliard so'm mablag'dan 15 milliard so'mini "Zakovat" intellektual klubi" NNTga o'tkazib berishda amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

"Zakovat intellektual klubi"
NNT direktori



D. Axmadi

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20 январдаги "Заковат интеллектуал уйинини аҳоли уртосида оммавий-маърифий ҳаракатга айлантириш ва бошқа интеллектуал уйинларни ривожлантиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида" ПҚ-96 сон қарорига мувофиқ "Заковат интеллектуал клуби" ННТ томонидан 2024 йилга белгиланган режалаштирилган чора-тадбирларнинг

ХАРАЖАТЛАР СМЕТАСИ

| № | Чора-тадбирлар | Муддати | Сумма |
|--|--|------------------|-----------------------|
| "Заковат интеллектуал клуби" ННТ ходимлари иш хақи ва мукофот пуллари, ҳам та сафар харажатлари учун | | | 15 085 692 000 |
| 1 | "Заковат интеллектуал клуби" ННТ штат ходимларининг ойлик маошлари, мукофот пуллари, устамалар ва улар учун ажратиладиган моддий ёрдамлар | Йил давомида | 10 665 900 000 |
| 2 | "Заковат интеллектуал клуби" ННТ штат ходимларининг ойлик маошлари, мукофот пуллари, устамалар учун ягона ижтимоий тулов (ЯИТ 12%) | Йил давомида | 1 586 592 000 |
| 3 | Заковат интеллектуал клуби нодавлат ноижорат ташкilotи штат ходимларининг 3 та байрам мукофот пуллари | Йил давомида | 2 555 700 000 |
| 4 | "Заковат интеллектуал клуби" ННТ штат ходимларининг сафар харажатлари тахминий сметаси | Йил давомида | 240 000 000 |
| 5 | "Заковат интеллектуал клуби" ННТ кенгаши вакиллари учун моддий рағбатлантириш | Йил давомида | 37 500 000 |
| "Заковат интеллектуал клуби" ННТ харидлари ва ижараси | | | 413 595 800 |
| 6 | Техник воситалар хариди | Йил давомида | 142 000 000 |
| 7 | Офис жиҳозлари | Йил давомида | 56 328 200 |
| 8 | Санитария ва гигиеник маҳсулотлар | Йил давомида | 43 667 600 |
| 9 | "Заковат интеллектуал клуби" ННТ эҳтиёжлари учун ажратиладиган автомобилларнинг ёқилғи харажатлари | Йил давомида | 21 600 000 |
| 10 | "Заковат интеллектуал клуби" ННТ офиси ижараси харажатлари | Йил давомида | 150 000 000 |
| "Заковат" интеллектуал ўйини ва бошқа интеллектуал ўйинлар ҳақидаги барча маълумотларни ягона веб-сайтга жойлаштириш харажатлари | | | 315 800 000 |
| 11 | Электрон платформани бойитиш харажатлари | Йил давомида | 50 000 000 |
| 12 | Электрон платформа учун сервернинг фаолиятини таъминлаш харажатлари | Йил давомида | 265 800 000 |
| Интеллектуал мусобақалар гoлиблари ва иштирокчи ёшлар учун Тошкент вилояти, Буёновлик туманидаги "Ёшлар оромгоҳи"да "Интеллектуал мактаб" мавсумий оромгоҳ лoйиҳасини йўлга қўйиш | | | 335 250 000 |
| 13 | "Ёшлар оромгоҳи"да мавсумий фаолият кўрсатадиган "Интеллектуал мактаб" лoйиҳасини ўтказиш харажатлари | Йил давомида | 335 250 000 |
| "Заковат" интеллектуал клубининг доимий ўтказиладиган мавсумий ўйинлари | | | 2 330 919 200 |
| 14 | Худудлардаги Ёшлар марказларида ташкил этилган "Заковат" клубларининг фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш харажатлари | Йил давомида | 706 000 000 |
| 15 | Тошкент шаҳридаги "Заковат" клубининг Профессионал, Биринчи ва Иккинчи лигаларини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | Йил давомида | 419 369 600 |
| 16 | "Заковат" клубининг "Талабалар" "Мактаб" ва "Ўқувчи-талабалар" лигаларини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | Йил давомида | 403 520 000 |
| 17 | "Шахсий ўйин" мавсумий ўйинларини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | Йил давомида | 60 000 000 |
| 18 | "Заковат-Quiz" ўйинларини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | Йил давомида | 742 029 600 |
| Таълим муассасалари ўртасида ўтказиладиган турнирлар | | | 16 965 000 000 |
| 19 | Умумий ўрта таълим мактаблари ўртасида "Заковат" интеллектуал мусобақасини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | сентябрь-октябрь | 1 145 000 000 |
| 20 | Ихтисослаштирилган таълим муассасалари ўқувчилари ўртасида "Заковат" интеллектуал ўйинини ташкил этиш билан боғлиқ харажатлар | октябрь | 1 145 000 000 |
| 21 | Ўрта-махсус ва профессионал таълим муассасалари ҳамда академик лицейлар ўртасида "Заковат" интеллектуал мусобақасини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | сентябрь-октябрь | 1 145 000 000 |
| 22 | Олий таълим муассасалари ўртасида Интеллектуал олимпиада ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | ноябрь | 13 530 000 000 |
| "Заковат" интеллектуал клубининг йил давомида ташкил қилинган турнирлари | | | 829 295 400 |
| 23 | "Интеллектуал марафонлар" ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | сентябрь | 300 480 000 |
| 24 | Чемпионлар кубоги мусобақасини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | 2 марта | 26 462 400 |
| 25 | "Заковат", "Шахсий ўйин" ва "Эрудит квартал" ўйинлари бўйича Ўзбекистон чемпионатларини (Ўзбек тилида) ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | август | 502 353 000 |
| "Заковат" интеллектуал ўйинининг махсус турнирлари | | | 8 039 407 600 |
| 26 | Кўнглик кўзи тадбирини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | сентябрь | 419 527 600 |
| 27 | Хорижий давлатларда таҳсил олаётган ва яшаётган ватандошлар учун турнирлар ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | Йил давомида | 309 440 000 |
| 28 | "Заковат" интеллектуал ўйини бўйича Азияда турнири (Олмота шаҳрида, рус тилида) ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | август | 150 000 000 |
| 29 | 1-октябрь "Ўқитувчилар кўни"га бағишланган Ўқитувчилар ўртасидаги "Заковат" турнирини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | октябрь | 800 000 000 |

| | | | |
|--|--|--------------|-----------------------|
| 30 | Шаҳмат бўйича халқаро "Заковат Лигаси" турнирини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | октябрь | 5 000 000 000 |
| 31 | 8-декабрь "Конституция куни"га бағишланган ҳуқуқшунослар ва ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимлари ўртасида "Заковат" турнирини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | декабрь | 388 970 000 |
| 32 | Маҳаллалар ўртасида "Заковат" ўйинларини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | йил давомида | 971 470 000 |
| "Заковат Ру Лига" ўйинлари | | | 354 596 000 |
| 33 | "Заковат Ру Лига"нинг мавсумий ўйинларини ўтказиш билан боғлиқ харажатлар | йил давомида | 354 596 000 |
| "Заковат" интеллектуал ўйинининг ТВ ва бошқа ижтимоий тармоқларидаги ўйинлар ва кўрсатувлар харажатлари | | | 1 589 000 000 |
| 34 | Турли хил кўринишдаги медиаконтентларни медиамайдонда ёритиб борувчи медиа марказ ташкил этиш билан боғлиқ харажатлар | йил давомида | 1 226 000 000 |
| 35 | Турли хил кўринишдаги медиаконтентларни медиамайдонда ёритиб борувчи марказ ташкил этиш билан боғлиқ харажатлар | йил давомида | 363 000 000 |
| Интеллектуал ўйинларнинг республика босқичида галиб бўлган ўқувчи ёшлар ва талабалар учун стипендия бериш ва улар учун ўйин дастурларини яратиш | | | 685 440 000 |
| 36 | Интеллектуал ўйинларнинг республика босқичида галиб бўлган ўқувчи ёшлар ва талабалар учун "Заковат" стипендияси бериш билан боғлиқ харажатлар | йил давомида | 685 440 000 |
| Ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш, уларга мотивация бериш мақсадида дунё тан олган олимлар, жумладан Нобел мукофоти соҳиблари билан учрашувлар ташкил этиш. | | | 1 520 361 000 |
| 37 | Ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш, уларга мотивация бериш мақсадида дунё тан олган олимлар, жумладан Нобел мукофоти соҳиблари билан учрашувлар ташкил этиш билан боғлиқ харажатлар | йил давомида | 1 520 361 000 |
| Бошқа харажатлар | | | 1 535 643 000 |
| 38 | "Заковат" брендини тарғиб қиладиган ва логотип туширилган маҳсулотлар учун харажатлар | йил давомида | 35 643 000 |
| 39 | Бошқа тадбирлар ва кўзда тутилмаган харажатлар | йил давомида | 1 500 000 000 |
| ЖАМИ | | | 50 000 000 000 |

Иқтисод қилинган маблағлар "Заковат интеллектуал клуби" ННТ Кенгаши қарори билан сметда курсатилган ва курсатилмаган бошқа тадбирлар ва харажатлар учун шикоятлиши.

"Заковат интеллектуал клуби" ННТ директори



Д. Ахмади